«Til va adabiyot ta'limi» – «Преподавание языка и литературы» – «Language and literature teaching»

"Filologiya va pedagogika" ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2025-yil
4 (8)-son

e-ISSN 3060-4885

# FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

# PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



## Ushbu sonda

O'zbek terminologik nazariyasining ilmiy tadqiqi: hosil bo'lishi, taraqqiyoti va boyish manbalari — 4-bet

Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" dostonlarida sabr talqini — 28-bet

Badiiy nutqdagi frazemalarda obrazlilikning ifodalanishi — 70-bet

Креативное письмо как инструмент изучения иностранных языков — 140-bet

**Manzura Moʻminova.** Badiiy asar arxitektonikasi va kompozitsiyasi ....97
**Gulruh Shodiyeva.** Jadid ma'rifatparvarlarining adabiyot ta'limiga qoʻshgan hissasi ....99
**Сардор Химматов.** Глобализация мирового культурного и лингвистического пространства ....101
**Рахим Ходжиев.** Лексико-семантический анализ военной терминологии ....102
**Диана Шарапова.** Изображение ивы и дуба в художественном мире Марины Цветаевой ....104
**Nasiba Shodiyeva.** Zamonaviy til oʻqitish ta'limida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati ....105
**Сайёра Бекмурзаева.** Художественная деталь в функции выражения подтекста (на материале диалогов в прозе С.Д.Довлатова) ....107

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA

**Nigora Alimova, Zebuniso Bobayeva.** Gospital ta'limning boshlangʻich sinflarida "Sifat va uning ma'no turlari" mavzusini oʻqitish usullari ....110
**Bobomurod Bobojonov.** Xorijiy til oʻqitishda kasbiy ijodiy faollikni oshirishning didaktik asoslari ....112
**Maxsudaxon Obidova.** Ona tili ta'limida boʻlajak oʻqituvchilarning kognitiv faoliyatini pedagogik loyihalashtirishning jarayonli xususiyatlari ....114
**Ирода Алимбаева, Зилола Рахмонова.** Интерактивные методы обучения на уроках РКИ ....116
**Наргиза Бабаниязова.** Тенденции развития цифровых технологий при обучении иностранным языкам ....117
**Матлюба Мирханова.** Успешное использование технологий в аудитории ....120
**Камиля Набиева.** Эволюция методов преподавания русского языка ....122
**Елена Палеева.** Развитие родительской компетентности в современной семье как условие эффективного воспитания и обучения детей младшего школьного возраста ....124
**Гулнора Сафарова.** Сценарий конкурса «Я говорю по-русски» (проведён между 2-ми классами в рамках месячника русского языка) ....125
**Nigoraxon Maxmudova.** Kommunikativ kompetensiyaning shakllanish mohiyati ....126
**Maftuna Abdullayeva.** Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida hayotiy koʻnikmalarni takomillashtirish mexanizmi ....129
**Nazokat Jiyanova.** Mavzu tahlilida zamonaviy usullardan foydalanishning oʻrni ....132
**Nozimaxon Mamadjanova.** "Guess What" ingliz tili darsliklarida grammatik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari ....135
**Nursulton Shayxislamov.** Ona tili va adabiyot darslarida oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish masalalari ....138
**Сурайё Хамраходжаева.** Креативное письмо как инструмент изучения иностранных языков ....140
**Oydin Moʻminova.** Talabalar tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishda loyihalash texnologiyasidan foydalanish ....142
**Shoxodat Ziyayeva.** Fransuz tilida toʻgʻri talaffuz va uning oʻzbek tili bilan qiyosiy tahlili ....145
**Анжелла Бабаева.** Роль виртуальных экскурсий в обучении РКИ ....147
**Sarvar Baxodirov, Gulzoda Panjiyeva.** Sogʻlom turmush tarzini keng targʻib qilish (gimnastika misolida) ....148
**Ziyuar Kazimbetova.** Qoraqalpoq tili darslarida nutqiy koʻnikmalarni takomillashtirishda "Jurnalist" loyiha ishining ahamiyati ....150
**Erkin Murodov.** Umumiy oʻrta ta'lim muassasalari oʻquvchilarini zamonaviy kasblarga oʻqitishning milliy modeli ....153

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

**Nursulton SHAYXISLAMOV,**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti turizm fakulteti oʻquv ishlari boʻyicha dekan oʻrinbosari*

# ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA OʻQUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik jihatlari yoritiladi, zamonaviy yondashuvlar va samarali usullar haqida fikr yuritiladi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, interfaol usullar, badiiy adabiyotlardan foydalanish va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar**: nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, kommunikativ yondashuv, interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, multimediaviy ta'lim, onlayn ta'lim platformalari.

**Annotation**. This article highlights the methodological aspects of forming students' speech competencies in native language and literature lessons, exploring modern approaches and effective methods. The importance of a communicative approach, interactive methods, the use of fiction, and modern technologies in the development of speech competence has been revealed.

**Keywords**: speech competence, linguistic competence, communicative approach, interactive methods, innovative technologies, multimedia education, online educational platforms, linguistic competence.

**Аннотация**. В данной статье освещаются методические аспекты формирования речевых компетенций учащихся на уроках родного языка и литературы, рассматриваются современные подходы и эффективные методы, раскрыто значение коммуникативного подхода, интерактивных методов, использования художественной литературы и современных технологий в развитии речевой компетенции.

**Ключевые слова**: речевая компетенция, языковая компетенция, коммуникативный подход, интерактивные методы, инновационные технологии, мультимедийное образование, платформы онлайн-обучения.

Hozirgi zamon ta'lim tizimi oʻquvchilarni shaxsiy rivojlantirishga, ularda mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va qarorini aniq ifoda etish koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda ona tili va adabiyot darslarining oʻrni beqiyosdir. Til bu – jamiyat a'zolarini bogʻlovchi vosita boʻlib, oʻquvchilarning bilim olishida, dunyoqarashini kengaytirishda va madaniy merosni anglashida asosiy rol oʻynaydi. Shuning uchun ham ona tili va adabiyot fanlarini oʻqitishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Nutqiy kompetensiya bu – oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma shaklda mantiqiy, aniq va ravon fikr ifoda etish qobiliyatidir. Bu kompetensiyani shakllantirish orqali oʻquvchilar oʻz fikrlarini toʻgʻri va chiroyli bayon qilishni, boshqa insonlar bilan samarali muloqot olib borishni hamda mustaqil fikrlashni oʻrganadilar. Ta'lim jarayonida bu kompetensiyani rivojlantirish uchun an'anaviy va innovatsion usullarning uygʻunligi talab etiladi.

Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirish yoʻllari muhokama etiladi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish boʻyicha ta'lim metodikalarining amaliy jihatlari va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi oʻrganiladi.

Noam Xomskiy lingvistik kompetensiyani insonning til tizimini mukammal oʻzlashtirish va undan foydalanish qobiliyati sifatida ta'riflaydi [6]. Lev Vygotskiy esa nutqiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy omillarning muhimligini ta'kidlab, bolalar tilni atrof-muhit bilan muloqot qilish orqali oʻzlashtirishlarini aytadi [7]. Jan Piajening fikriga koʻra, bolalar tildan foydalanish jarayonida nutqiy tafakkurlarini rivojlantiradilar va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradilar [8]. Maykl Xollidey esa funksional lingvistika nuqtayi nazaridan nutqiy kompetensiyani kommunikativ ehtiyojlarga bogʻliq holda rivojlanadigan jarayon sifatida koʻradi [9].

Oʻzbek tilshunosligida ham nutqiy kompetensiya muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Gʻ.Salohiddinova nutqiy kompetensiyani oʻquvchilarning yozma va ogʻzaki nutqini shakllantirishda asosiy omil deb biladi. A.Mamajonov esa ta'lim jarayonida lingvistik va pragmatik kompetensiyalar uygʻunligiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar ham katta ahamiyatga ega. Masalan, multimediaviy ta'lim vositalari va onlayn platformalar orqali oʻquvchilarning nutqiy mahoratini oshirish samaradorligi bir qancha tadqiqotlar orqali isbotlangan [11].

**1. Nutqiy kompetensiya –** shaxsning ogʻzaki va yozma nutqda fikrini aniq va ravon ifoda etish qobiliyati. Uni shakllantirish uchun quyidagi omillar muhim rol oʻynaydi:

• **Til boyligini oshirish** – oʻquvchilarning soʻz boyligini kengaytirish ularning fikrni aniq ifoda etish qobiliyatini oshiradi. Masalan, sinonim va antonim soʻzlar bilan ishlash,

lugʻat boyligini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar bajarish tilning lugʻat boyligini rivojlantirishda samarali usullardan biridir.

• **Grammatik me'yorlarga rioya qilish**. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishda grammatik qoidalarni toʻgʻri qoʻllash juda muhim. Misol uchun, fe'l zamonlarining toʻgʻri ishlatilishi yoki gap qurish qoidalariga rioya qilish oʻquvchilarga fikrini tushunarli bayon etishda yordam beradi.

• **Matn tuzish qobiliyatini rivojlantirish.** Oʻquvchilarda matn tuzish qobiliyatini shakllantirish uchun insho yozish, hikoya tuzish, matnni qayta hikoya qilish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Masalan, oʻquvchi biror voqeani oʻz soʻzlari bilan qayta hikoya qilsa, uning fikrni izchil va mantiqiy bayon etish koʻnikmasi rivojlanadi.

**2. Ona tili va adabiyot darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish usullari:**

• **Kommunikativ yondashuv.** Bu oʻquvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Masalan, roliklar yaratish, bahs-munozaralar tashkil etish va interfaol mashgʻulotlar oʻtkazish natijasida oʻquvchilar oʻz fikrlarini mustaqil ifoda etish imkoniyatiga ega boʻladilar.

• **Badiiy adabiyotdan foydalanish.** Oʻquvchilarga badiiy asarlar oʻqitish, ulardan iqtiboslar keltirish, obrazlarni tahlil qilish orqali ularning nutqiy mahorati rivojlantiriladi. Masalan, "Oʻtkan kunlar" asaridagi Otabek va Kumush obrazlarini solishtirish topshirigʻi beriladi.

**3. Interfaol metodlarni qoʻllash:**

• **Bahs-munozaralar.** Bunda oʻquvchilar fikrlashga, oʻz qarashlarini dalillar bilan asoslashga oʻrganadilar. Buning uchun dars jarayonida turli mavzularda ochiq munozaralar tashkil etish mumkin. Masalan, "Axborot texnologiyalarining ta'limdagi oʻrni" mavzusida oʻquvchilar ikki guruhga boʻlinib, bahs olib boradilar.

• **Rolli oʻyinlar.** Oʻquvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Masalan, dars jarayonida tarixiy shaxslar rolini ijro etish orqali ularning nutqiy mahorati oshadi.

• **Loyiha ishlari.** Oʻquvchilar muayyan mavzularda taqdimot va loyiha ishlari tayyorlash orqali oʻz nutqiy kompetensiyalarini shakllantiradilar. Masalan, "Mening orzumdagi shahar" mavzusida taqdimot tayyorlash topshirigʻi beriladi.

Nutqiy kompetensiyani shakllantirish oʻquvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda eng muhim jihatlardan biridir. Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini ravon va ifodali qilish, lingvistik va madaniy savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning turli usullari koʻrib chiqildi. Jumladan, kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, badiiy adabiyotdan foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish muhimligi ta'kidlandi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi natijasida multimediaviy resurslar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali oʻquvchilarning nutqiy faolligini oshirish imkoniyati ortib bormoqda. Oʻqituvchilar ushbu imkoniyatlardan toʻgʻri foydalangan holda dars jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish oʻquvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishga, ularning jamiyatda faol ishtirok etishiga hamda mustaqil fikrlovchi shaxs boʻlib yetishishiga yordam beradi. Shunday ekan, bu yoʻnalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va amaliy tajribalar uzluksiz takomillashtirilib borilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gʻofurov U., Qodirova M. Ona tili va nutq madaniyati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2021.
2. Hasanov R. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Gʻaniyeva D. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. – Toshkent: Noshir, 2019.
5. UNESCO. Innovative Methods in Language Teaching. – Paris, 2020.
6. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – MIT Press, 1965.
7. Vygotskiy L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes, 1978.
8. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge & Kegan Paul, 1959.
9. Halliday M.A. Learning to mean – Explorations in the development of language. – London: Edward Arnold, 1975.
10. Sattarova N.O. Nutqiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning asosiy elementlari tasnifi. // Science and Education, 2023 4(6), 696–699.
11. Johnson B., Lee C. Utilizing Language Models for Interactive Learning Environments. // Educational Technology Review, 2019. 15, 275–290.